

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI TAYANCH KOMPETENSIYALARINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası
v.b dotsenti, p.f.f.d (PhD)

Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi

Shahrisabz davlat pedagogika institute

Ta'lim va tarbiya nazariyasi

va metodikasi (boshlang'ich ta'lim)

mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Xurramova Zulayxo Salohiddin qizi

e-mail: zulayxoxurramova55@gmail.com

ORCID:0009-0005-3497-0536

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning muhim masalalari yoritilgan. Maqolada tayanch kompetensiyaning mazmuni, uning tarkibiy qismlari hamda boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qituvchilardan talab qilinadigan kasbiy ko'nikmalar tahlil qilingan. Shu bilan birga kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion o'qitish usullari, interfaol metodlar, zamonaviy texnologiyalarning samaradorligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: tayanch kompetensiyalar, interfaol metodlar, zamonaviy texnologiyalar, kasbiy rivojlanish, metodika.

Abstract. This article highlights important issues in improving the methodology for developing basic competencies of primary school teachers. The article analyzes the content of basic competencies, its components, and the professional skills required of teachers in the process of primary education. At the same time, the effectiveness of innovative teaching methods, interactive methods, and modern technologies that serve to develop competencies is substantiated.

Keywords: basic competencies, interactive methods, modern technologies, professional development, methodology.

Аннотация. В статье освещаются актуальные вопросы совершенствования методики формирования базовых компетенций учителей начальной школы. Анализируется содержание базовых компетенций, их компоненты, а также профессиональные навыки, необходимые учителям в процессе начального образования. Обосновывается эффективность инновационных методов обучения, интерактивных методов и современных технологий, способствующих формированию компетенций.

Ключевые слова: базовые компетенции, интерактивные методы, современные технологии, профессиональное развитие, методика.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ushbu jarayonda boshlang'ich ta'lim muhim bo'g'in sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning bilimiga munosabati, shaxsiy rivojlanish yo'nalishi va keyingi ta'lim faoliyatiga tayyorgarligi shakllanadi. Shu bois

boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy salohiyati, pedagogik mahorati va tayanch kompetensiyalarining rivojlanganlik darajasi ta'lim sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi ta'lim jarayonining markaziy subyekti sifatida nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchilarda mustaqil va kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi, ularni muloqotga kirisha olishga yo'naltiruvchi hamda shaxsiy qobiliyatlarini namoyon etishi uchun qulay pedagogik muhit yaratuvchi shaxs bo'lishi lozim. Bu esa o'qituvchidan yuqori darajada shakllangan tayanch va kasbiy kompetensiyalarni talab etadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarga ko'ra, o'qituvchi o'z faoliyatida innovatsion dars metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interfaol o'qitish usullari hamda reflektiv tahlil imkoniyatlaridan samarali foydalanishi zarur.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar ham ushbu masalaning dolzarbligini tasdiqlaydi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorida ta'lim tizimini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, malakali va raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur hujjatda pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligi ularning bilim, ko'nikma va malakalarini amaliy faoliyatda qo'llay olish darajasi bilan baholanishi zarurligi ta'kidlanadi.

Pedagogika fanida kompetensiya tushunchasi shaxsning muayyan faoliyat sohasida samarali ishlashini ta'minlovchi integrativ sifat sifatida talqin etiladi. Kompetensiya faqat bilimlar majmui bilan cheklanmay, balki olingan bilim, ko'nikma va malakalarni real hayotiy va kasbiy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Kompetensiyaviy yondashuv shaxsni muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish va amaliy yechimlar ishlab chiqishga yo'naltiradi. Kompetensiya turlari ichida tayanch kompetensiyalar alohida o'rin egallaydi. Tayanch kompetensiyalar shaxsning ijtimoiy hayotda, ta'lim jarayonida va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini ta'minlovchi universal qobiliyatlar majmui hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun tayanch kompetensiyalar pedagogik faoliyatning turli vaziyatlarida samarali harakat qilish, o'quvchilar bilan to'g'ri muloqot o'rnatish, pedagogik muammolarni hal etish va ta'lim jarayonini boshqarishga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlar va pedagogik amaliyot shuni ko'rsatadiki, tayanch kompetensiyalar bilim, shaxsiy sifatlar, kasbiy tajriba, qadriyatlar va reflektiv tafakkurning uzviy birligi asosida shakllanadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisida kommunikativ kompetensiya, axborot bilan ishlash kompetensiyasi, ijtimoiy-faol pozitsiya, kasbiy refleksiya va innovatsion fikrlashning rivojlangan bo'lishi ta'lim sifati uchun muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limning o'ziga xos psixologik va pedagogik xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qituvchining individual yondashuvi katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning yosh va psixofiziologik rivojlanish darajasi, qiziqishlari va ehtiyojlari pedagogik jarayonni tashkil etishda muhim omil hisoblanadi.

Tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni, avvalo, o'qituvchining pedagogik faoliyatda faol subyekt sifatidagi rolini kuchaytirishga yo'naltirilishi lozim. Kompetensiyaviy yondashuv shundan iboratki, o'qituvchi faqat tayyor metodik ko'rsatmalarni ijro etuvchi ijrochi sifatida emas, balki ta'lim jarayonini loyihalovchi, uning mazmuni va texnologiyasini tahlil qiluvchi hamda pedagogik vaziyatlarga mos ravishda mustaqil qaror qabul qiluvchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi. Bunday yondashuv o'qituvchining kasbiy mas'uliyatini oshiradi va ta'lim

jarayonining samaradorligini ta'minlaydi. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining innovatsion g'oyalarni amaliyotga tatbiq eta olishi uning kasbiy kompetensiyalarining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Innovatsion faoliyat pedagogdan yangicha fikrlashni, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishni va ta'lim jarayonida mavjud metodlarni tanqidiy baholashni talab etadi. Shu ma'noda, tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish o'qituvchining o'z faoliyatini doimiy ravishda refleksiya qilish, o'z-o'zini baholash va professional rivojlanish strategiyasini belgilash qobiliyatlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Mazkur jarayonda innovatsion o'qitish usullari muhim metodik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Interfaol metodlar ta'lim jarayonida subyektlararo munosabatlarni faollashtirib, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida samarali hamkorlikni shakllantiradi. Ushbu metodlar o'quvchilarning fikrini erkin ifodalashga, muammoli vaziyatlarda mustaqil yechim topishga va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada o'qituvchi o'quvchilarning ta'lim faoliyatini tashkil etuvchi va yo'naltiruvchi rolni bajaradi, bu esa uning kommunikativ va tashkiliy kompetensiyalarini yanada rivojlantiradi. Shuningdek, interfaol metodlardan foydalanish o'qituvchining reflektiv kompetensiyasini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Dars jarayonida yuzaga keladigan pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, o'quvchilarning faolligini baholash va ta'lim natijalarini monitoring qilish o'qituvchining o'z faoliyatiga tanqidiy yondashishiga imkon beradi. Bunday reflektiv faoliyat o'qituvchining professional o'sishini ta'minlash bilan bir qatorda, tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasining samaradorligini oshiradi. Umuman olganda, o'qituvchining innovatsion va reflektiv faoliyatga tayyorligi tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning muhim sharti hisoblanadi. Interfaol o'qitish usullarini maqsadga muvofiq va tizimli qo'llash o'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qilib, boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishga samarali pedagogik asos yaratadi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish boshlang'ich sinf o'qituvchisining axborot kompetensiyasini rivojlantirishda muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo'ladi. Raqamli ta'lim vositalari, jumladan interaktiv taqdimotlar, elektron darsliklar, multimedia materiallari, onlayn platformalar va raqamli baholash tizimlari dars jarayonining vizualligini oshirish bilan bir qatorda, o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi hamda ularning o'quv faoliyatida faol ishtirokini ta'minlaydi. Bu esa boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarni bilimlarni ongli va puxta o'zlashtirishga yo'naltiradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim jarayonini individuallashtirish imkonini yaratib, o'quvchilarning yosh xususiyatlari, psixologik rivojlanish darajasi va individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'limni tashkil etishga xizmat qiladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun moslashtirilgan raqamli resurslardan foydalanish ularning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, o'z-o'zini nazorat qilish va baholash malakalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, o'qituvchining raqamli texnologiyalar bilan ishlash malakasi uning axborotni tanlash, qayta ishlash va ta'lim jarayoniga moslashtirish kompetensiyasini ham rivojlantiradi. Biroq axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish jarayoni pedagogik maqsadlarning aniq belgilanishi va ta'lim mazmuni bilan uzviy uyg'unlikda amalga oshirilishini talab etadi. Texnologiyalar ta'lim jarayonida maqsad emas, balki o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi vosita sifatida qo'llanilishi lozim. Agar raqamli vositalardan maqsadsiz yoki ortiqcha foydalanilsa, ular o'quvchilarning diqqatini chalg'ituvchi omilga aylanishi mumkin.

Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchisi texnologik vositalarni tanlashda ularning pedagogik imkoniyatlarini, didaktik samaradorligini va o'quvchilar yosh xususiyatlariga mosligini chuqur tahlil qilishi zarur. Raqamli ta'lim vositalarini an'anaviy o'qitish usullari bilan uyg'unlashtirish esa o'qituvchining kasbiy mahoratini yuksaltirib, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ongli va maqsadli foydalanish boshlang'ich sinf o'qituvchisining axborot kompetensiyasini rivojlantirishda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Boshlang'ich ta'lim amaliyoti shuni ko'rsatadiki, interfaol va innovatsion metodlardan samarali foydalanish o'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantiradi. Dars jarayonida refleksiya elementlaridan foydalanish o'qituvchiga o'z faoliyatini tahlil qilish, pedagogik xatolarni aniqlash va keyingi faoliyatni rejalashtirish imkonini beradi. O'qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishi tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Shu bilan birga, tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda baholash tizimini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Kompetensiyaviy baholash o'qituvchining nafaqat nazariy bilimlarini, balki uning amaliy faoliyati, ijodiy yondashuvi va muammoli vaziyatlarga munosabatini ham hisobga oladi. Bu esa pedagogni o'z faoliyatini chuqur tahlil qilishga va professional o'sishga undaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida aniqlanganki, ta'lim sifatining oshishi, avvalo, o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi, pedagogik tafakkuri va kompetensiyaviy yondashuvni amaliy faoliyatda samarali qo'llay olish darajasiga bevosita bog'liqdir. Boshlang'ich ta'lim bosqichida faoliyat yurituvchi pedagog kadrlarning tayanch kompetensiyalari yetarli darajada shakllanmagan sharoitda ta'lim jarayonining kutilgan samaradorligiga erishish qiyinlashadi. Shu nuqtai nazardan, tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni tizimli, uzluksiz va ilmiy asoslangan metodika asosida tashkil etilishi zarur. O'qituvchining kommunikativ, axborot, reflektiv hamda innovatsion kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik sharoitlarning yaratilishi ta'lim mazmunini boyitadi va ta'lim jarayonining sifat jihatdan yangilanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, interfaol metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni maqsadga muvofiq qo'llash o'qituvchining kasbiy mahoratini oshirish bilan bir qatorda, o'quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy faolligini rivojlantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'z faoliyatiga reflektiv yondashuvi, o'z-o'zini tahlil qilish va doimiy kasbiy rivojlanishga intilishi tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Shuningdek, kompetensiyaviy baholash tizimining joriy etilishi o'qituvchining nafaqat bilim darajasini, balki uning amaliy faoliyati, ijodiy yondashuvi va pedagogik muammolarga munosabatini aniqlash imkonini beradi. Umuman olganda, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini doimiy takomillashtirish ta'lim tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlash, zamon talablariga mos pedagog kadrlarni tayyorlash hamda barkamol, mustaqil fikrlovchi va raqobatbardosh shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois mazkur yo'nalishda olib boriladigan ilmiy izlanishlar va amaliy tajribalar uzluksiz davom ettirilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. — Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
4. Muslimov N.A., Urazova M.B., Ismailova Z.K. Pedagogik kompetensiya va uni rivojlantirish metodikasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
5. To‘raqulov A., Xodjayev B. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
6. Abdulkarimov X., Rahmonov F. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. — Toshkent: Innovatsiya, 2020.
7. Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: Moliya, 2003.
8. Ziyomammedov B., To‘xtayev U. Pedagogik texnologiya asoslari. — Toshkent: Fan, 2018.
9. Boltaboyev S., Qodirov A. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2021.